

# **XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda hunarmandchilik va kasb hunar holati**

**Magistrant: Xidirov A.B.**

Chor Rossiyasi hukumati O'rta Osiyoni bosib olgach o'lkani tubdan isloh qilish orqali mustamlakachilik siyosatini yanada mustahkamlashga harakat qildi. Buning oqibatida o'lka halqlari tomonidan asrlar davomida qo'llanilib, shakllantirilib kelinayotgan kasb va hunar turlari ham ma'lum o'zgarishlarga uchradi. Shunday bo'lishga qaramasdan mustamlaka davrida ham ko'plab qadimgi kasblar o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Bunday kasb va hunar turlari avloddan avlodga o'tish an'anasi mavjud bo'lgan.

Ishlab chiqarishda yangi munosabatlar-fabrika va zavod raqobatchiligi paydo bo'lganligiga qaramay ustaxona, sex birlashmalari hanuz mavjud edi. Paxtaga ishlov berish hamma yerda tarqalgan edi. Paxta kichik qo'l asbobi chig'iriq yordamida chigitdan tozalanar va keyin ayollar uni yigirishar edi<sup>1</sup>. Yigirilgan iplar boshqa mahsulotlar qatorida Rossiyaga olib ketilgan.

Guldor matolar, shoyi, beqasam, duruya, adras, ayniqsa, banoras va paripasha nomli gazlamalar keng tarqalgan. XIX asr o'rtalarida bu gazlamalar to'quvchi hunarmandlar tomonidan tayyorlangan. Xilma-xil turdagi bu gazlamalarning barchasi yuqori malaka va san'at, matonatni talab qiluvchi yog'och dastgohlarda to'qilgan.

Gazlamaga naqsh tushirish juda murakkab bo'lgan. Abrband usta tolalarning sonini hisoblab chiqib nuqtalar bilan belgilagan, bog'lab chiqqan, keyin xilma-xil bo'yoqlarga solib qayta-qayta bo'yagan. Beqasam va adrasga kudunglash-kudung deb ataluvchi yog'och bolg'a bilan urib chiqish va yelimli eritma surtish bilan jilo berilgan. Atlasga naqsh solishda ham asosiy tolalar bog'langan. Buxoroda naqshli baxmal ham shu tarzda tayyorlangan<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston halqlari tarixi. II jild, T,: "Fan", 1993, 164-b

<sup>2</sup> O'sha joyda, 165-b

Buxoro amirligining Samarqand, Vardonza, G'ijdivon kabi shaxarlari kulolchilik markazi bo'lgan. Mustamlakachilik davrida fabrikada ishlab chiqarilayotgan chinni va shisha idishlar bilan raqobat qilish mumkin emasdi, shu bois ham ko'plab ustalar yuqori sifatli lekin o'ta qimmatligidan bozor ko'tarmaydigan mahsulot tayyorlashdan voz kechishdi. Faqat qo'pol ammo arzon mollarnigina ishlab chiqarish saqlanib qoldi.

Yog'ochga ishlov berish, duradgorlik kasblari Buxoroda o'z ahamiyatini saqlab qoldi. XIX asr oxirida Buxoroda boshqa kasblardan farqli o'laroq zargarlik kasbining nihoyatda gullab yashnaganligini ko'rish mumkin. Sababi Buxoro va boshqa hududlarda oltin va kumush quyish usuli Yevropa texnikasi ta'sirida ancha kuchaydi.

Shu bilan birga temirchilik ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Mahalliy temirchilar ko'plab turdagi temir mahsulotlar ishlab chiqarishni bilganlar. Ma'lumotga ko'ra, Buxoroda 32 xildagi temir mahsulotlarini ishlab chiqaradigan soha ma'lum bo'lgan<sup>3</sup>. Masalan, badiiy bezakli pichoqlarni ishlab chiqishda Buxoro ustalari o'z mahorati bilan tanilgan.

Buxoro shaxrida metalga ishlov berishning miskarlik sohasi ham rivoj topgan. Shaxarda miskarlar mahallasi ham bo'lgan. Masalan, XX asr boshlarida Buxoroda 400 ga yaqin miskar bo'lgan<sup>4</sup>.

Eng og'ir va murakkab mehnat, sabr-toqat, matonat talab qil;inadigan badiiy amaliy san'at sohasi-marmar o'ymakorligi –sangtaroshlik XX asr boshlarigacha Xiva bilan Buxoro shaxrida rivojlanib kelgan

Rossiya mustamlakachiligi siyosati hunarmandlar sinfi safini kamaytiribgina qolmasdan boshqa ba'zi bir sohalarni ham sezilarli darajada kamaytirdi. Dehqonchilik, nhususan paxtachilik hududlarining kengaytirilishi va unga bo'lgan e'tiborning nihoyatda kuchayib borilishi boshqa soha - bog'dorchilikning birmuncha kamayishiga olib keldi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1840-yili Buxoro amirligida faqat bog'dorchilikdan olingan daromad 99 million tillani tashkil

---

<sup>3</sup> I. Jabborov O'zbek halqi etnografiyasi. T.; "O'qituvchi", 1994, 117-b

<sup>4</sup> O'sha joyda, 117-b

qilgan<sup>5</sup>. Ammo mustamlaka davrida, XIX asr oxirida bog'dorchilikdan olinadigan daromadning kamayganligi unga beriladigan e'tiborning susayganligi bilan ifodalash mumkin.

Paxtachilik va uning yetishtirilishining ko'paytirilishi o'lkada paxta tozalash zavodlarining ko'plab qurilishiga olib kel'di. Paxta zavodlarining qurilishi Buxoroda ham yuz bergan. Shu bilan birga yog' sovun va boshqa narsa ishlab chiqaruvchi zavodlar ham ishga tushurildi. Unda mahalliy aholi va kam sonli rus aholi ham ishlaganlar. Korxonalar kichik bo'lganidan ularda 30-35 , ba'zan 80-100 kishi ishlardi. Mehnat sharoiti og'ir, ish kuni 17-18 soatga cho'zilardi. Mehnat muhofazasi yo'q, ish haqi kam edi. 1904 yili 12-15 yoshli bola kuniga 15-20 tiyin, o'smir 30-50 tiyin, katta yoshli kishi 60 tiyindan bir so'mgacha ish haqi olishgan. Ayollar 35-60 tiyin maosh olishgan. Ishchilarning aksari qismiga kunbay ish haqi to'langan, bu bilan ma'muriyat ularni ularni ishdan bo'shash qo'rquvida tutib turardi<sup>6</sup>. Bundan tashqari ish haqi to'lashda ishchilarni hisob-kitobda aldash hollari ham bo'lib turgan.

Umuman olganda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro va , umuman Turkiston ahli murakkab jarayonni boshidan o'tkazdi. Asrlar davomida foydalanilib kelinayotgan kasb va hunar turlari zavod- fabrika, ularning raqobatchiligiga dosh berolmay keskin zarbaga uchradi. Shu o'rinda ishlab chiqarish korxonalarining vujudga kelishiyangi sinf-ishchilar sinfining ham shakllanib va mustamlakachilar foydasiga bo'lsada , ishlab chiqarish sur'atlarining ma'lum ma'noda ko'tarilishiga olib keldi

---

<sup>5</sup> A. Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. T.: "Sharq" 2000, 299-b

<sup>6</sup> O'zbekiston halqlar tarixi. II jild T.: "Fan", 1993. 158-b

